

«MA ' Q U L L A N G A N »

“Xonqa don maxsulotlari” AJ Kuzatuv
kengashi tomonidan
2023 yil 10 noyabrdagi
10-son bayonnoma

_____ N.Jumayev.

Kuzatuv kengashi raisi

“Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining 2024 yil uchun

BIZNES - REJA

Xonqa shaxri 2023 yil

MUNDARIJA

I. Korxonaga to'g'risida umumiy ma'lumot

- 1.1 Korxonaga rekvizitlari (umumiy ma'lumotlar, korxonaga pasporti);*
- 1.2 Korxonaga tarixi, oxirgi yillarda erishgan yutuqlari;*
- 1.3 Mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish holati;*
- 1.4 Korxonaga tashkiliy va ijro etuvchi apparati boshqaruvi tuzilmasi, tarmoq korxonalari to'g'risida ma'lumot;*
- 1.5 Kadrlar siyosati, ishchi-xodimlar, jumladan, korxonaga boshqaruv va ijroiya organi a'zolari to'g'risida ma'lumot, ijtimoiy himoya;*
- 1.6 Korxonaning bozordagi o'rni va ahamiyati, shu jumladan xalqaro bozordagi maqei;*
- 1.7 Korxonada joriy etilgan sifatni boshqarish tizimi*

II. Korxonani isloh qilish

- 2.1 Istiqbolli rivojlanish strategiyasi;*
- 2.2 Isloh qilish maqsadi va bosqichlari;*
- 2.3 Isloh qilishning 2024 yil uchun rejasi;*

III. Bozor va marketing rejasi

- 3.1 Bozor tahlili*
- 3.2 Mahsulot (xizmat)ning asosiy iste'molchilari, tarkibi*
- 3.3 Raqobat*
- 3.4 Marketing rejasi*

IV. SWOT-tahlili

V. Energo resurslar ta'minoti va ularning sarfi

- 5.1. Quvvatlarni modernizatsiya va rekonstruksiya qilish orqali energiyani tejash va samaradorlikni oshirish bo'yicha Texnik siyosati*

VI. Ko'rsatkichlar

6.1 Ishlab chiqarish rejasi

- 6.1.1. Xomashyo zaxirasi;*
- 6.1.2. Tayyor mahsulotning asosiy tavsiflari*
- 6.1.3. Joriy (2 yillik) ishlab chiqarish holati*
- 6.1.4. Ishlab chiqarish va sotish rejasi*

6.2 Moliyaviy reja

- 6.2.1 Joriy (2 yillik) moliyaviy ko'rsatkichlar*
- 6.2.2 Moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar rejasi (budjeti)*

6.2.3 Daromadlar shakllanishining asosiy manbai (narxlar prognozi)

6.2.4 Xarajatlar va tannarxni optimallashtirish.

6.2.5 Pul oqimlari prognozi

6.2.6 Moliyaviy barqarorlik, likvidlilik va to'lov qobiliyati, qarzdorlik (ichki va tashqi), kreditlar yuki

6.2.7 Davlat budjetiga to'lovlar prognozi

6.2.8 Moliyaviy ko'rsatkichlarning o'xshash korxonalar bilan solishtirilishi (benchmarking)

VII. Ish xaqi to'lash tizimi

VIII. Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari (KPI)

IX. Tashqi iqtisodiy faoliyat rejasi (eksport va import)

X. Mahalliyashtirish

XI. Investitsiya loyihalari

XII. Biznes risklarni (tavakkalchiliklarni) boshqarish

XIII. Ekologiya va atrof muhitga ta'siri

XIV. Ilovalar

14.1 Mahsulot ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish) hajmi

14.2 Tannarxni kamaytirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

14.3 Investitsiya loyihalarini amalga oshirish reja-jadvali

14.4 2024 yilda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining asosiy ko'rsatkichlari

14.5 Kutilayotgan buxgateriya balansi (choraklar kesimida)

14.6 Kutilayotgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (o'sib boruvchi tartibda choraklar kesimida)

14.7 Daromadlar va xarajatlar smetasi (budjeti)

14.8 Samaradorlikning muhim ko'rsatkichlari

KORXONANING UMUMIY TAVSIFNOMASI

1. Bundan buyon matnda “jamiyat” deb ataluvchi “Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati O‘zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish Davlat qo‘mitasi (Davlat raqobat qo‘mitasi) Xorazm viloyat hududiy boshqarmasining 1995 yil 18 maydagi 135k-PO-sonli buyrug‘iga asosan tashkil etilgan. Jamiyatning to‘liq firma nomi:

2.1. O‘zbek tilida:

Lotin yozuvida: “Xonqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati.

Kirill yozuvida: “Honqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyati.

2.2. Rus tilida: Aksionernoye obshchestvo “Xonka don mahsulotlari”.

2.3. Ingliz tilida: Joint stock company “Xonqa don mahsulotlari”.

2. Jamiyatning qisqartirilgan nomi:

3.1. O‘zbek tilida:

Lotin yozuvida: “Xonqa don mahsulotlari” AJ.

Kirill yozuvida: “Honqa don mahsulotlari” AJ.

3.2. Rus tilida: AO “Xonka don mahsulotlari”.

3.3. Ingliz tilida: JSC “Xonqa don mahsulotlari”.

3. Jamiyatning manzili:

- Pochta manzili: Xorazm viloyati, Xonqa tumani, Mulla-yop ko‘cha 64 uy.
Indeks: 220800.

Jamiyatning elektron pochta manzili: xonqadonaj@umail.uz;

4. Jamiyatning rasmiy korporativ veb-sayti: www.xonqadonmahsulotlari.uz.

5. Ind: 220800. Tel: (0362) 39-95-851

6. Bank rekvizitlari: x/raqami: 20208000300237903001

7. MFO: 00560

8. INN: 200429242

9. ATB Agro bank Xonqa tuman bo‘limi

10. Ishchilar soni: Jami 212 kishi.

Jami aksiya soni	18 481 104 dona	
“O‘zdonmahsulot” AK	12 476 116 dona	67,5 %
Yuridik va jismoniy shaxslar	6 004 988 dona	32,5 %
Ustav jamgarmasi:	1 848 110 400 so‘m	
“O‘zdonmahsulot” AK	1 247 611 600 so‘m	
Yuridik va jismoniy shaxslar	600 498 800so‘m	

Jamiyat raisi: Abdullayev Ravshonbek Masharibovich

Bosh xisobchi: Gaipov Anvarbek Sapayevich

JAMIYATNING HUQUQIY HOLATI, JAVOBGARLIGI

Jamiyat tijorat tashkiloti bo'lib, uning asosiy maqsadi moliyaviy-xo'jalik faoliyatidan foyda olishdir.

Jamiyat asosiy maqsadiga erishish uchun faoliyat va xizmat ko'rsatishning quyidagi turlarini amalga oshiradi:

- Un va un maxsulotlarini ishlab chiqarish va korxonalar, tashkilot va aholiga yetkazish;
- Omuxta yem ishlab chiqarish, korxonalar, tashkilot va aholiga yetkazish;
- Non va non maxsulotlari ishlab chiqarish, korxonalar, tashkilot va aholiga yetkazish;
- Qishloq xo'jalik mahsulotlarini xarid qilish, qayta ishlash, saqlash, qadoqlash va sotish;
- Qishloq xo'jaligi korxonalar va shaxsiy tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan don maxsulotlarni qabul qilish, saqlash va qayta ishlash;
- G'alla ekinlar donini tayyorlash va ekish uchun qishloq xo'jaligi korxonalar va shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga yetkazib berish;
- Savdo harid ishlari, shu jumladan chakana, ulgurji va tijorat savdosi;
- Yuqoridagi bandeda ko'rsatilgan faoliyatga taaluqli chakana, ulgurji va tijorat do'konlarini ochish;
- Halq iste'mol mollari ishlab chiqarish;
- Qonunda belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat;
- Aholiga qonunda belgilangan tartibda maishiy xizmat faoliyat;
- Aholiga xizmat ko'rsatuvchi va xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi, shuningdek boshqa xaridorgir mollarni ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar tuzish;
- Davlat, xususiy, jamoa korxonalar va axoli bilan shartnoma asosida transport xizmati, biolaboratoriya xizmati va tegirmon xizmati ko'rsatish;
- Birjada va birjadan tashqarida qimmatli qog'ozlar bilan muomala qilish;
- Amaldagi qonunchilikka muvofiq eksport-import operatsiyalari bilan shug'ullanish;
- O'zbekiston Respublikasi xududida va respublikadan tashqari xududlarda jamiyatga tegishli mulkni sotish, sotib olish va ijaraga berish;
- Ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar bilan bevosita o'zaro foydali aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish, tijorat-vositachilik xizmatlarni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi bilan man etilmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanish;
- Belgilangan tartibda investorlar bilan shartnoma asosida jamiyatga xo'jalik faoliyati uchun samarali bo'lgan investitsiyalar kiritish;

1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlarini amalga oshirishga haqli.

2. Maxsus ruxsatnoma (litsenziya) olishni talab qiladigan faoliyat turlari jamiyat tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziya olingandan keyin amalga oshiriladi.

3. Mazkur Ustavda ko'rsatilgan o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun jamiyat investitsion va O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari bilan man etilmagan faoliyatlarning boshqa turlarini amalga oshirishi mumkin.

4. Jamiyat qonunchilikda belgilangan boshqa faoliyat turlarini belgilangan tartibda amalga oshirishi mumkin.

5. Jamiyatning ustav kapitali aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi.

6. Jamiyatning ustav kapitali 1 848 110 400 so'mni tashkil qiladi. U har birining nominal qiymati 100 so'm bo'lgan 18 323 548 dona oddiy va 157 556 dona imtiyozli, jami 18 481 104 dona aksiyalardan iborat.

Maxsulot ishlab chiqarish bosqichlari, ishlab chiqarishni amalga oshirish mexanizmiga ta'rif.

1. Un ishlab chiqarish mexanizmiga ta'rif.

“Honqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida 48 000 tonna sig'imiga ega bo'lgan elevator, tashqaridan tashib keltirilgan bug'doy to'g'ri elevatorga qabul qilinadi.

Elevatordan bug'doy tozalaniib tegirmon konditsiyasigacha tozalaniib tegirmonning bug'doy tozalash bo'limiga o'tkazib beriladi. Tozalash bo'limida bug'doy tozalaniib yuvilib, namlanib (ya'ni otlyojkada bo'ladi) va yanchish bo'limiga o'tkaziladi. Yanchish bo'limida un ishlab chiqarilib:

Asosan: 1. I-navli un
Bug'doy kepagi

Don chiqindilari va bug'doy kepagi omuxta-em xom ashyosi bo'lib omuxta –em sexiga o'tkaziladi.

Bug'doy kepagi, don chiqindilari (yarokli, yaroksiz) ishlab chiqarilib, ishlab chiqarilgan un mahsulotlari temir moddasi bilan boyitilgan holda qoplarga joylashtirilib omborga joylanadi. Keyin iste'molchilarga ombordan to'g'ridan to'g'ri jo'natiladi. Omuxta-em xom ashyosi bo'lgan bug'doy kepagi va don chiqindilari xam omuxta-em sexiga o'tkaziladi. Omuxta – yem ishlab chiqarish sexida qoramollar uchun retsepturalar asosida sifatli yem mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Jamiyatimizga qarashli mavsumiy Urug'chilik sexida xar mavsumda don yetishtiruvchi xo'jaliklar uchun sifatli urug'lik bug'doy ishlab chiqariladi.

1. Maxsulot ishlab chiqarish uchun sarf bo'ladigan ishchi kuchi. Korxonada mexnat resurslari va kadrlar malakasini oshirish bo'yicha rejalar.

Jamiyatimizda asosan Un tegirmon, Omuxta-em sexi, Guruch ishlab chiqarish sexi, Mavsumiy Urug'lik ishlab chiqarish sexi va Chorvachilik faoliyat ko'rsatadi.

Jamiyatimizda yetakchi soxa bo'lgan un ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo bug'doyni avtotransportda tashib keltirishda:

Avto korxonalar, shirkat xo'jaliklari bilan xar bir tonna\km yukni tashib keltirish bo'yicha viloyat tumanlaridan kelishilgan narxlarda tashib keltirish bug'doy xosili davrida Moliya Vazirligi tomonidan tasdiqlangan tariflarda to'lanadi.

2. Ishlab chiqarishni kengaytirish, maxsulot turlarini ko'paytirish, tender asosida yangi xarajatlarni qoplash manbalari va muddatlari, samarasi.

Ishlab chiqarishga zarur bo'lgan extiyot kismlar faqat korporativ birja orqali amalga oshiriladi va arzon narxlarda sotib olingan extiyot qismlar maxsulot tannarxida ijobiy natija berib, samaradorlik oshishining omili bo'lib hisoblanadi.

3. Ishlab chiqarilgan maxsulotlarni sotish bo'yicha bozor talablarini o'rganish va marketing tadkikotlarini o'tkazish:

“Honqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatida ishlab chiqarilayotgan maxsulotlardan un maxsulotlari yuqori tashkilotimiz ya'ni “O'zdonmaxsulot” AK tomonidan naryadlar asosida buyruk beriladi, ushbu buyruk asosida Tovar xom ashyo birjasi orqali un maxsulotlari savdo tashkilotlariga, don maxsulotlari tizimi tashkilotlariga va boshka tashkilotlarga sotiladi. Ularning turlariga qarab kalkulyatsiya asosida “O'zdonmaxsulot” AK bilan kelishilgan holda chiqarilgan buyruqqa asosan Tovar xom ashyo birjasi orqali va to'g'ridan to'g'ri shartnoma orqali sotiladi. Bug'doydan chiqqan bug'doy kepagi, yaroqli don chiqindilari esa omuxta-em ishlab chiqarish uchun sexga beriladi. Bular xam belgilangan kalkulyatsiya baxolarida ishlab chiqarishga beriladi. Jamiyatimizda ishlab chiqarilgan omuxta-em maxsulotlari retsepturalari, Tovar xom ashyo birjasi orqali xoxlagan korxonada, tashkilot, shirkat, fermer, dexqon xo'jaliklariga tizim tashkilotlariga cheklanmagan miqdorda sotiladi.

2. Jamiyatning asosiy faoliyati.

Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi xo'jalik faoliyatidan foyda olishga qaratilgan bo'lib, faoliyat turlari quyidagicha:

- un ishlab chiqarish, sotish va don chiqindilarini qayta ishlash
- oziq-ovqat mahsulotlari hamda omuxta-em mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish
- un mahsulotidan iste'mol mollari ya'ni makaron, non va non bulochka mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish
- qishloq ho'jalik hamda chorva mahsulotlari yetishtirish va sotish
- mahalliy hom ashyodan halq iste'mol mollari ishlab chiqarish va sotish, shuningdek firma do'konlarini tashkil qilish
- avtotransport xizmatlari ko'rsatish
- savdo va savdo vositachilik xizmati ko'rsatish
- belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish
- agar ayrim faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma(litsenziya) talab qilinadigan taqdirda, jamiyat bu faoliyat turlari bilan shug'ullanish uchun maxsus ruxsatnoma olgan holda shug'ullanishi mumkin

Belgilangan Nizomga asosan jamiyatni bosh maqsadi:

- ho'jalik faoliyatidan foyda olish
- don mahsulotlari bozorini shakllantirishda faol qatnashish
- ishlab chiqariladigan mahsulot turini ko'paytirish va sifatini yaxshilash
- aholiga pullik xizmat ko'rsatish
- tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish

Ishlab chiqarish faoliyatining asosiy yo‘nalishlari.

- don mahsulotlarini qabul qilish, saqlash, va qayta ishlash
- navli un mahsulotlari ishlab chiqarish va qadoklash
- omuxta-em ishlab chiqarish
- makaron, non va non bulochka mahsulotlari ishlab chiqarish
- yuqori tashkilot tomonidan belgilangan topshiriqlarga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi tovar xom-ashyo birjasi orqali ulgurji va chakana narxlarda don, omuxta-em mahsulotlari sotish

Jamiyat quyidagi asosiy ishlab chiqarish sexlarini o‘z ichiga oladi:

a) Tegirmon sexi.

Sutkasiga 200 tonna bug‘doyni qayta ishlab 75 foiz – 150 tonna un mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatiga ega. Qayta ishlash jarayonida –75% birinchi navli un mahsuloti olinadi.

b) Omuxta – yem sexi.

Sutkasiga - 150 tonna koramollar uchun omuxta-em ishlab chiqarish quvvatiga ega. Sexda tayyor mahsulot va xom-ashyo saqlash omborlari mavjud.

Bundan tashqari kuniga 36 tonna sholini qayta ishlaydigan guruch sexi xam mavjud. Jamiyatimiz ichkarisida bug‘doy urug‘ligiga ishlov beruvchi “Pektus” don tozalagich o‘rnatilgan bo‘lib mavsumda 2200 tonna urug‘lik bug‘doy materialini qayta ishlash quvvatiga ega.

Shuningdek jamiyatda ishchi xizmatchilarni yuvib kiyinishlari uchun issiq va sovuq suv bilan ta‘minlangan dam olish xonasi, chiqindi suvlarni tozalash inshooti, ishchi xizmatchilar ovqatlanadigan oshxona mavjud.

3. Jamiyat faoliyati, jamiyat Nizomi, ichki tartib qoidalar hamda boshqa amaldagi qonunlar asosida yuritiladi.

Jamiyat xaqida umumiy ma‘lumot.

№	Ko‘rsatkichlar	Ma‘lumot
1	Korxonasi nomi	“Xonqa don mahsulotlari” AJ
2	Tashkiliy xuruqiy mulkchilik shakli	Aksiyadorlik jamiyati
3	Yo‘nalishi	Un-yorma
4	Manzili	Xor.viloyati Xonqa tumani Mulla-yop ko‘cha 64-uy
5	Telefon va faks	(0362) 39-95-851, 39-95-853
6	Raxbar	Abdullayev Ravshonbek Masharibovich
7	Umumiy yer maydoni (ga)	19,85
8	I/ch yer maydoni (ga)	18,1
9	2024 yilda i/ch quvvatlar. foydalanish (%)	39.4

10	Jami xodimlar soni	212
11	Ishlab chiqarish ishchi xizmatchilar soni	124
12	Qayta tashkil qilish sanasi	19.05.1995 yil
14	Bir aksiya nominal qiymati (so‘m)	100
15	01.01.2022 yilga Nizom jamg‘armasi	1 848 110,4 ming so‘m
16	Aksiya soni	18 481 104
17	Nizom jamgarmasini taqsimlanishi	
	- O‘zdonmaxsulot AK ulushi	67,5
	- Yuridik va jismoniy shaxslar	32,5
18	Xozirda Nizom jamg‘.taqsimlanishi	
	- O‘zdonmaxsulot AK ulushi	1 247 611 600
	- Yuridik va jismoniy shaxslar	600 498 800
19	Moliyaviy holati	Barqaror
	01.10.2023 yil xolatiga	
20	Joriy aktivlar (ming so‘m)	108 896 506,0
21	Asosiy vositalar (ming so‘m)	22 594 676,0
22	O‘z mablag‘lari (ming so‘m)	24 484 141,0
23	Joriy majburiyatlar (ming so‘m)	93 681 871,0
24	2023 yil 9 oylik sof foyda (ming so‘m)	114 114,0


4. Nizom jamg‘armasi.

“Honqa don mahsulotlari” AJning umumiy yig‘ilish qaroriga asosan jamiyat Nizom jamg‘armasidagi “O‘zdonmaxsulot” AK ulushi 67,5%. Jamiyatning Nizom jamg‘armasi – 1 848 110,4 ming so‘mni tashkil qildi. Oddiy aksiyalar soni – 18 323 548 dona, 157 556 dona imtiyozli aksiya. Aksiya nominal qiymati – 100 so‘m. Emissiya risolasi viloyat qimmatli qog‘ozlar bozorini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markazi tomonidan guvohnoma berildi. Emisiya risolasi bo‘yicha aksiyalar quyidagi tartibda taqsimlandi.



Aksiyadorlar	Ulushi (%)	Aksiya soni (dona)	Ulush qiymat (ming so'm)
“O‘zdonmahsulot” AK ulushi	67,5	12 476 116	1 247 611,6
Mehnat jamoasi ulushi	21,0	3 870 882	387 088,2
Yuridik shaxslar ulushi	11,5	2 134 106	213 410,6
JAMI :	100,0	18 481 104	1 848 110,4

4.1. AKSIYADORLIK JAMIYATINING TASHKILIIY TUZILMASI



5. Jamiyatni boshqarish organlari, kadrlar siyosati va ish xaqi.

“Honqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining Oliy boshqaruv organi bo‘lib aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi hisoblanadi. Umumiy yig‘ilish “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarni huquqini himoya qilish to‘g‘risidagi” O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan bir yilda kamida bir marta o‘tkaziladi.

“Honqa don mahsulotlari” aksiyadorlik jamiyatining boshqaruv organlari sxemasi quyidagicha :

Oliy organ	-	Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi
Kengash	-	Kuzatuv kengashi
Nazorat	-	Taftish komissiyasi va ichki audit
Ijroiya organi	-	Boshqaruv

№	Familiya, ismi va sharifi	Ish joyi	Lavozim	A‘zolik turi
1	Jumayev Nodirjon Jaxanovich	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K boshqarma boshlig‘i	Rais
2	To‘raqulov Qaxramon Xasanovich	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K bosh texnologi	A‘zo
3	Kamilov Abror Anvarovich	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K bosh mutaxassis	A‘zo
4	AbdullayevRasul Abdulazizovich	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K yetakchi mutaxassis	A‘zo
5	Donayev Sherali Burxanovich	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K boshqarma boshlig‘i	A‘zo
6	Raximov Xojiakbar Abduhakim o‘g‘li	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K yetakchi mutaxassis	A‘zo
7	Kilichev Turonshox Dilshod o‘g‘li	"O‘zdonmaxsulot" AK	«O‘zdonmaxsulot»A.K mutaxassis	A‘zo

Jamiyat ijro organi tarkibi

№	Familiya, ismi va sharifi	Lavozim
1	Abdullayev Ravshonbek Masharibovich	Boshqaruv raisi
2	Sherliyev Bekzod Atabekovich	Ish. chiq, mahalliy lashtirish va sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish mas. bo‘yicha direktor
3	Salayev Bobur Kabulovich	Boshqaruv raisining transformatsiya masalalari buyicha birinchi o‘rinbosari
4	Avezov Ruslan Kamildjonovich	Moliya faoliyati, mahsulot sotish.va sotib olish bo‘yicha direktor
5	Gaipov Anvarbek Sapayevich	Bosh xisobchi

Hozirgi kunda jamiyatda -212 nafar ishchi xizmatchi ishlamoqda.
Jamiyatning shtatlar jadvali quyidagicha:

№	Lavozimi	Soni
1	Boshqaruv xodimlari	7
2	Texnik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar	81
3	Asosiy ishlab chiqarish xodimlari	124
	J a m i :	212

Jamiyat ishlovchi xodimlarning 25.5 % - oliy ma'lumotli, 33,5 foizi o'rta mahsus, 41,0 foizi o'rta ma'lumotiga ega.

Shtat jadvali asosida o'rtacha oylik maosh quyidagicha :

№	Lavozimi	O'rtacha oylik maosh (so'm)
1	Boshqaruv xodimlari	3 863 700
2	Texnik va xizmat kursatish xodimlar	2 479 503
3	Asosiy ishlab chiqarish xodimlari	2 328 870

**Jamiyat barcha ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun
sertifikatlarga ega.**

6. Marketing.

1. Jamiyat mahsulotlari.

Jamiyat tomonidan un, talab-takliflarga qarab non va non bulochka mahsulotlari, urug'lik bug'doy hamda chorva va parrandalar uchun yuqori tashkilotlar tomonidan belgilangan reja topshiriqlari asosida mahsulotlar ishlab chiqariladi. Jamiyat tomonidan quyidagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda.

- vitamin minerallari bilan boyitilgan birinchi navli un
- yirik shohli koramollar uchun omuxta-em
- non va non-bulochka mahsulotlari
- urug'lik bug'doy
- gurunch mahsulotlari

Jamiyatning keyingi 5 yil davomidagi ishlab chiqarish hajmi:

Maxsulot nomi	Miqdori (tn)					Qiymati (ming sumda)				
	2020	2021	2022	2023 kutilayotgan	2024 kutilayotgan	2020	2021	2022	2023 kutilayotgan	2024 kutilayotgan
Un/Inav	37492	37600	33864	20624	18000	122385220	126878468	154824849	119630848	90632971
Omuxta-em	16855	17065	15895	8659	12000					
Urug'lik bug'doy	2077	1880	1883	1278	0					
Gurunch	2803	0	0	0	0					
JAMI						122385220	126878468	154824849	119630848	90632971

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar uchun mahalliy xom-ashyodan foydalaniladi. Mahalliy xom-ashyodan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi.

Omuxta-em ishlab chiqarishda ham asosan mahalliy xom-ashyodan foydalaniladi. Talab va takliflarga asosan hamda yuqori tashkilot tomonidan belgilangan ishlab chiqarish reja topshirig'i asosida qoramollar uchun omuxta-em mahsulotlari ishlab chiqariladi.

2024 yilda omuxta-em ishlab chiqarish uchun sarf qilinadigan xom-ashyolar:

№	Xom – ashyo nomi	Miqdori (tonna)
1	- bug'doy kepagi	7890
2	- don chikindisi	2700
3	- muchka	900
4	- paxta shroti	60
5	- arpa	270
6	- oxak uni	180
	JAMI	12 000

7. Qadoqlash.

Ishlab chiqarilayotgan un mahsulotlari polipropilen qoplarga – 50 kilogrammdan qadoqlanib yorliq tikilgan.

Qop – 2950 soʻmdan korporativ birjadan sotib olinmoqda.

Yorliqlar xarid birjadan sotib olinmoqda.

8. Mavsumiy talab.

Unga bo'lgan talab asosan yilning qish va bahor oylarida ortadi. Bundan tashqari non va non bulochka mahsulotlariga qish, baxor va kuz mavsumida talab yuqori bo'ladi.

Qoramollar uchun yemga bo'lgan talab esa qish va bahor oylarida ortib boradi.

O'z-o'zidan urug'lik bug'doyni ishlab chiqarish esa ekish mavsumiga to'g'ri keladi.

9. Narxlar.

Jamiyat tomonidan ishlab chiqarilayotgan un mahsulotlar narxlari "O'zdonmahsulot" AK bilan kelishilgan holda kalkulyatsiyaga asosan belgilanadi. Shunga ko'ra:

№	Mahsulotning nomi	O'lchov birligi	QQS siz ochiq ulgurji narxlar
1.	Birinchi nav	Tn.	3 705 357
2.	Kepak	Tn.	1 700 000
3.	Omixta yem	Tn.	2 026 785

10. Mol yetkazib beruvchilar.

Asosiy xom-ashyo hisoblaniladigan bug'doy o'rim-yig'im mavsumida Viloyatning 3 ta tumani (Xonqa, Xiva va Yangiariq) don yetishtiruvchi ho'jaliklaridan kontraktatsiya shartnomalari asosida sotib olinadi.

Jamiyatimizga karashli Viloyatimiz Xiva tumanida joylashgan "Xiva Qaraqum" DQQShga qabul qilinadigan 7100 tonna, Xonqa tumani bosh korxonaga qabul 12206 tonna qabul qilinadi va "O'zdonmahsulot" AKning naryadlariga asosan ichki tizim korxonalaridan tashib keltiriladi.

Jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan ehtiyot qismlar, materiallar, asbob-uskunalar va boshqa boyliklar korporativ birja orqali sotib olinadi.

11. Jamiyatning mahsulot sotish tahlili.

Jamiyat tomonidan ishlab chiqarilayotgan un mahsulotlari asosan non ishlab chiqarish korxonalarini va xususiy firma hamda do'konlarga birja savdolari orqali yetkazib beriladi. Yem mahsulotlari asosan chorva fermer xo'jaliklari, chorvachilik-naslchilik komplekslari va boshqa xaridorlarga birja savdolari orqali yetkazib beriladi. Urug'lik bug'doy mahsulotlari don yetishtiruvchi ho'jaliklarga kontraktatsiya shartnomalari orqali ekish mavsumida yetkazib beriladi.

Keyingi 3 yil davomidagi mahsulot sotish hajmlari

Mahsulot nomi	2022 yil		2023 yil kutilayotgan		2024 yil kutilayotgan	
	Miqdor (tn)	Qiymati (ming.so'm)	Miqdor (tn)	Qiymati (ming.so'm)	Miqdor (tn)	Qiymati (ming.so'm)
Un	33864	154824849	20624	119630848	18000	90632971
Omuxta-em	15895		8659		12000	
Urug'lik bug'doy	1883		1278		0	

12. Raqobatdosh korxonalar.

Jamiyat raqobatdosh korxonalar sifatida, “Xorazmdonmaxsulotlari” AJ, “Shovot don mahsulotlari” AJ, “Bog‘ot don” AJlaridir.

Jamiyat bozorda mahsulotlarni raqobatga bardoshli va sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishi va sifatli mahsulot ishlab chiqarishi kerak. Buning uchun asosan mahsulot ishlab chiqarishda mahalliy xom-ashyodan foydalanish, transport, oylik maosh va boshqa harajatlarni qisqartirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarish lozim.

13. Ishlab chiqarish.

Jamiyatning asosiy ishlab chiqarishi un va omuxta-emni tashkil qiladi. Jamiyatning keyingi uch yil davomidagi Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va turlari:

(kiyoslama narxlarda)

Maxsulot nomi	Miqdori (tn)				Qiymati (ming so'mda)			
	2021	2022	2023 kutilayotgan	2024 kutilayotgan	2021	2022	2023 kutilayotgan	2024 kutilayotgan
Un/Inav	37600	33864	20624	18000	126878468	154824849	119630848	90632971
Omuxta-em	17065	15895	8659	12000				
Urug'lik bug'doy	1880	1883	1278	0				
Gurunch	0							
JAMI					126878468	154824849	119630848	90632971

Ishlab chiqariladigan un mahsulotining sifati (organolepticheskiye, vlajnost, krupnost pomola, zolnost) O`Z DST 1104:2011 texnik shartlarga asosan tartibga solinadi va mos keladigan mahalliy yumshoq navli bug`doydan qayta ishlanadi.

Un mahsulotlarini qadoqlash, tashish va saqlash O`Z DST 1722:2015 texnik shartlar asosida amalga oshiriladi.

Yem ishlab chiqarish O`Z DST 3240:2017 texnik shartlar asosida amalga oshiriladi.

14. Mol yetkazib beruvchilar hamda foydalaniladigan xom – ashyo to`g`risida.

Un ishlab chiqarish uchun asosiy xom-ashyo yumshoq navli bug`doy hisoblanib, bu xom-ashyo viloyatdagi don yetishtiruvchi ho`jaliklardan sotib olinadi.

Yem ishlab chiqarish uchun zarur xom-ashyolar (shrot, makkajo`hori, muchka, oxak uni va arpa) viloyatdagi mol yetkazib beruvchi tashkilotlardan Tovar xom ashyo birjasi orkali sotib olinadi. Qolgan xom-ashyolar (kepak, don chiqindilari, arpa, sinfsiz bug`doy) qayta ishlashdan xamda ichki tizim korxonalaridan yuqori tashkilot taqsimotiga asosan sotib olinadi.

Sotib olinadigan xom-ashyo sifati jamiyatning markaziy laboratoriyasida orqali nazorat qilinadi.

15. Ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi.

Jamiyatning mahsulot ishlab chiqarish sexlari quvvatlari quyidagicha:

- tegirmon sexi un ishlab chiqarish quvvati – 150 tn/sutka
- omuxta – yem sexi omuxta – yem ishlab chiqarish quvvati - 150 tn/sutka

Keyingi 2 yil davomida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish:

№	Ko`rsatki chlar, bajariladigan ishlar, mahsulot nomi	O`l bir	Loyiha quvvati	Quvvatdan foydalanish				Reja		Shundan				O`si sh/kam ayis h,%
				2022 y.	%	2023 y	%	2024y.	%	1-chorak	2-chorak	3-chorak	4-chorak	
I. Korxonada bo`yicha														
1.	Un	Tn	45750	33864	74.0	20624	45.1	18000	39.3	4500	4500	4500	4500	39.3
2.	Omuxta-em	Tn	45750	15895	34.7	8659	18.9	12000	26.2	3000	3000	3000	3000	26.2

Energoresurslar

№	Nomi	O'lchov birligi	Haqiqiy is'temol qilingan	Holati
1	Elektr energiya	kVt	3502922	Qoniqarli
2	Suv	m ³	76000	Qoniqarli
3	Gaz	m ³	521746	Qoniqarli

16. Moliyaviy ahvoli.

Mahsulotlarni sotishdan sof tushum.

Jamiyat sof tushumi – ishlab chiqarilgan maxsulotlarni sotishdan olinadi.

Keyingi 3 yilda va 2024 yilda mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan miqdori quyidagicha.

Mahsulot nomi	Ishlab chiqarish				Sotish			
	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Un	37600	33864	20624	18000	37600	33864	20624	18000
Omuxta yem	17065	15895	8659	12000	17065	15895	8659	12000
Gurunch	0	0	0	0	0	0	0	0

Keyingi 5 yilda va 2024 yilda mahsulot sotishdan tushadigan tushum quyidagicha.

Sotish				
2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil kutilayotgan	2024 yil kutilayotgan
122385220	126878468	154824849	119630848	90632971

Keyingi 3 yilda va 2024 yilda kutilayotgan sof foyda:

(ming.so'm)

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil kutilayotgan	2024 yil kutilayotgan
Umumho'jalik foydasi	3246625	4855361	202859	472274
Favqulodda foyda va zarar	0	0	0	0
Soliq to'langungacha olingan foyda	3246625	4855361	202859	472274
Daromaddan soliq	580204	1204769	30429	70841
Foydadan boshqa soliqlar	0	0	0	0
Sof foyda	2666421	3650592	172430	401433

17. Sotilgan mahsulot tannarxi.

Jamiyatning mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi.

$$\text{YaF} = \text{SST} - \text{IT}$$

Bunda, YaF – yalpi foyda, SST – sotishdan olingan sof tushum, IT – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi

Mahsulot sotishdan tushadigan tushumni 85-90 foizini mahsulot tannarxi tashkil qiladi. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi harajatlar ularning iqtisodiy – mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan quyidagi guruhlariga ajratiladi.

- Ishlab chiqarish moddiy harajatlar
- Ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash harajatlari
- Ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
- Asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
- Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa harajatlar.

18. Jamiyatning 2024 yilga rejalashtirilgan reja dasturi.

1. Omuxta yem sexidagi eski lift o'rniga yangi lift o'rnatish rejalashtirilgan.
2. Mavsumda don qabul qilish uchun birinchi namuna olish uchastkasini yangidan zamonaviy qilib qurib berish rejalashtirilgan.
3. Elevator, omuxta yem sexlari va don qabul qilish maskanlari uchun extiyot qismlar va uskunalar sotib olish rejalashtirilgan.
4. Transport bo'limidagi avtomashinalar turargoxini (garaj) joriy ta'mirlash va eskirgan yokilg'i quyish uskunasi yangisiga almashtirish, ta'mir talab zil, traktor va tirkamalarni ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan.
5. Tegirmon sexiga extiyot qismlarni sotib olish va sexni joriy ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan.
7. Elevator binosi 681 m², omuxta yem sexi binosi 2000 m², urugchilik binosi 294 m², transport bo'limini 40 m² tom qismlarini kapital ta'mirlash rejalashtirilgan.
8. Elevator va tegirmon sexlarini fasad qismini ta'mirlash, Suv ta'minoti inshootidagi yopiq suv hovuzini tozalash.
9. AUP, sog'lomlashtirish binosi, tayyor mahsulotlar omborlari, sholi oqlash va urug'lik, tegirmon, elevator, omuxta yem sexlari binolari va don qabul qilish maskanlarini joriy va kapital ta'mirlash rejalashtirilgan.

“Honqa don mahsulotlari”

AJ boshqaruv raisi:-

R.M.Abdullayev

Bosh hisobchi:-

A.Goipov

Bosh iqtisodchi:-

X.Mamatov